



# IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 6**

**2026**

## **TARIXIY TOPONIMLAR VA ULARNING NOMINATSION XUSUSIYATLARI**

**Shukurov Rahmatillo Mirzatillayevich**  
Andijon davlat chet tillari instituti, tadqiqotchi

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada tarixiy toponimlarning nominatsion xususiyatlari, ularning shakllanish mezonlari hamda til, tafakkur va madaniyat bilan uzviy bog'liqligi tahlil qilinadi. Toponimlarning geografik obyektlarni identifikatsiya qilishdagi o'rni, tarixiy-etnik va madaniy ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, joy nomlarini yaratishda motivlanganlik, topografiklik, sistemaviylik, grammatik maqbullik va funksional qulaylik kabi mezonlarning ahamiyati ochib beriladi. Tadqiqot natijalari tarixiy toponimlarning nafaqat nomlash vositasi, balki xalqning tarixiy xotirasi, etnik o'zligi va madaniy merosini aks ettiruvchi muhim lingvistik birlik ekanligini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** toponim, nominatsiya, onomastika, joy nomlari, tarixiy-etnik muvofiqlik, nominatsion xususiyat, geografik obyekt.

## **ИСТОРИЧЕСКИЕ ТОПОНИМЫ И ИХ НОМИНАТИВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ**

**Шукуров Рахматилло Мирзатиллаевич**

Андижанский государственный институт иностранных языков, исследователь

### **Аннотация**

В данной статье анализируются номинативные особенности исторических топонимов, критерии их формирования, а также их взаимосвязь с языком, мышлением и культурой. Освещается роль топонимов в идентификации географических объектов, их историко-этническое и культурное значение. Особое внимание уделяется таким критериям создания географических названий, как мотивированность, топографичность, системность, грамматическая приемлемость и функциональное удобство. Результаты исследования показывают, что исторические топонимы являются не только средством номинации, но и важными лингвистическими единицами, отражающими историческую память народа, его этническую идентичность и культурное наследие.

**Ключевые слова:** топоним, номинация, ономастика, географические названия, историко-этническое соответствие, номинативная особенность, географический объект.

## **HISTORICAL TOPONYMS AND THEIR NOMINATIVE FEATURES**

**Shukurov Rahmatillo Mirzatillayevich**

Andijan State Institute of Foreign Languages, Researcher

### **Abstract**

This article analyzes the nominative features of historical toponyms, the criteria for their formation, and their relationship with language, cognition, and culture. The role of toponyms in identifying geographical objects, as well as their historical, ethnic, and cultural significance, is examined. Particular attention is paid to such criteria for place-name formation as motivation, topographic relevance, systematicity, grammatical appropriateness, and functional convenience. The findings demonstrate that historical toponyms serve not only as naming units but also as important linguistic elements reflecting a people's historical memory, ethnic identity, and cultural heritage.

**Keywords:** toponym, nomination, onomastics, place names, historical-ethnic correspondence, nominative feature, geographical object.

Nomlar nafaqat insonning kuzatishlari, tajribasi, ko'nikma va malakalari mahsuli, balki jamiyatning dunyoqarashi, madaniyati va qadriyatlarini ifodasi hamdir. Shaxs, tushuncha, narsa va predmetlarga berilgan nomlar ko'pincha ularning mohiyatini anglashga, ularni ajratib ko'rsatishga yordam beradi. Nom orqali odamlar voqelikni tartibga soladi, tasniflaydi va, eng muhimi, uni idrok etishning yangi imkoniyatlarini yaratadi. Rus onomast-tilshunosi A.V. Superanskaya ta'kidlaganidek, «...biror predmet yoki hodisa nomining paydo bo'lishini inson tajribasisiz tasavvur qilish mumkin emas...» [1; 24–26-b.]. Shuningdek, nom inson tafakkurining mahsuli sifatida voqelikni belgilaydi, idrokni shakllantiradi, madaniy xotirani saqlaydi, ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi va insonning ijodiy kuchini namoyon etadi. Shuning uchun voqelikning o'zgarishi nomlar ma'nosi yoki qo'llanishining ham o'zgarishiga olib keladi. Ya'ni ilmiy atamalar rivojlanib boradi, zamonaviy texnologiyalar yangi nomlarni talab qiladi, tildagi eski

nomlar esa yangi ma'nolar bilan boyiydi. Demak, nom statik emas, balki dinamik tushunchadir. Inson biror narsani nomlamasdan turib, uni to'liq idrok eta olmaydi. Nom berish orqali narsa yoki tushunchaga voqelikning bir qismi sifatida chegara qo'yadi va uni boshqalardan ajratadi. Nom berish jarayoni kuzatilgan xususiyatlarni belgilash, o'xshash va farqli jihatlarni ajratish, ma'no hamda miqdor belgilarini ifoda etish kabi bosqichlardan iboratdir. Shunga ko'ra, nomlash faqat leksik jarayon emas, balki kognitiv jarayon hamdir. Nomlash inson faoliyatining eng qadimiy va muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanib, narsa va tushunchalarga nom qo'yish jarayoni insonning fikrlash qobiliyati, til va madaniy rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir. Mazkur tadqiqotning maqsadi tarixiy toponimlarning nominatsion xususiyatlarini tahlil qilish, ularning shakllanish mezonlari va funksional vazifalarini aniqlashdan iborat.

**Metodlar.** Tadqiqot davomida tavsifiy, semantik, etimologik va qiyosiy-tahliliy metodlardan foydalanildi. Toponimlarning nominatsion xususiyatlarini aniqlashda onomastika va toponimika bo'yicha ilmiy manbalar o'rganildi. Shuningdek, Farg'ona viloyati hududidagi ayrim tarixiy joy nomlari misol tariqasida tahlil qilindi. Toponimlarning shakllanishida motivlanganlik, tarixiy-etnik muvofiqlik, topografiklik va grammatik maqbullik mezonlariga alohida e'tibor qaratildi.

**Natija.** Tahlillar natijasida toponimlarning asosiy nominatsion xususiyatlari aniqlandi.

Nomlash jarayonida umumiylik tushunchasi alohida ahamiyatga ega. So'z orqali nomlash faqatgina konkret obyektga emas, balki uning umumiy kategoriyasiga ham ishora qiladi. Masalan, "mahalla" nomini olaylik. Mahalla — o'zbek xalqining qadimiy ijtimoiy tuzilmasi bo'lib, aholining muayyan hududda yashovchi qismi birlashgan, o'ziga xos tartib-qoidalari, an'analari va boshqaruv organiga ega bo'lgan eng kichik hududiy hamda ijtimoiy birlikdir. Bu nom insonga konseptual darajada narsalarni birlashtirish va ularning umumiy xususiyatlarini anglash imkonini beradi. Lingvistikada bu jarayon semantik umumiylik sifatida qaraladi. Shu bilan birga, har bir nomning xususiylik funksiyasi ham muhimdir. Nomning vazifasi nafaqat umumiy kategoriyani ko'rsatish, balki konkret obyektga ham aniqlashdir. Masalan, "Pomir" degan nom nafaqat tog' tushunchasini, balki aniq geografik obyektga ham belgilaydi.

So'zning atoqli ot vazifasida qo'llanishi so'zning qo'shimcha atash vazifasidir. Bu vazifa o'z mohiyatiga ko'ra ham farqlanadi, chunki atoqli otlar turdosh otlar va boshqa oddiy so'zlardan farqli ravishda aniq predmet va hodisalarning, tabiiy-geografik obyektlarning maxsus nomlaridir [2; 15–16-b.]. Har bir nom o'zida ma'lum bir davrning tarixi, urf-odati, qadriyatlarini va dunyoqarashini ifodalaydi. Toponimlar aynan shu jihatiga ko'ra boshqa atoqli otlardan ajralib turadi. Tilshunoslardan tomonidan onomastik qonuniyatlarga ko'ra, joy nomlari, ya'ni toponimlar uzoq vaqt davomida xalq tomonidan yaratilgan va asoslangan quyidagi talab hamda mezonlarga javob berishi lozimligi ta'kidlanadi:

– joy nomi o'zi ifodalayotgan obyektning xususiyatlari bilan qandaydir darajada aloqador bo'lishi, ya'ni motivlangan bo'lmog'i kerak (motivlanganlik mezon);

– joy nomi o'zi anglatayotgan va nomlayotgan obyektning xarakteri (qayerda, qay tarzda joylashgani, tuzilishi, ko'rinishi) haqida ma'lumot berishi, ya'ni toponimik topografiklik xususiyatiga ega bo'lmog'i kerak (topografiklik mezon);

– joy nomi o'zi mansub bo'lgan til sistemasiga, uning xususiyatlariga mos tushishi, unga teskari va yot bo'lmasligi, joyning toponimik manzarasi (landshafti)ni buzmasligi lozim (sistemaviylik mezon);

– joy nomi o'zi mansub bo'lgan tilning lug'aviy va grammatik xususiyatlariga, uning asosiy talablariga (modellarga mosligi, shakllanish ixchamligi, talaffuzining qulayligi va imloviy to'g'riligi talabi) javob berishi kerak (grammatik maqbullik mezon);

– joyga qo'yilayotgan yangi nom betakror bo'lishi, o'sha hududda takror holda uchramasligi kerak;

– joy nomi iloji boricha o'zbek tilining ichki imkoniyatlari (so'zlari)dan yasalmog'i lozim (milliy-lug'aviy talablar mezon) [3; 34-b.].

Shu bilan birga, zamonaviy onomastika, madaniy merosni saqlash va toponimiyani boshqarish amaliyotidan kelib chiqib, toponimik birliklar uchun quyidagi talab va mezonlarning qo'yilishi ham maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

### **1. Tarixiy-etnik muvofiqlik mezon.**

Joy nomi o'sha hududning tarixi, etnik tarkibi, qadimiy nomlari yoki tarixiy voqealariga zid bo'lmasligi lozim. Shunda toponim hududning tarixiy o'zligini namoyon qiladi, joyning ma'naviy-madaniy qiymatini oshiradi.

### **2. Madaniy-axloqiy maqbullik mezon.**

Joy nomi madaniy, diniy va axloqiy jihatdan bahs, tushunmovchilik yoki salbiy ma'no uyg'otmasligi, hurmatsizlik mazmunini anglatmasligi, salbiy assotsiatsiyaga ega bo'lmasligi zarur.

### **3. Funktsional-ma'muriy qulaylik mezonlari.**

Joy nomi xarita, kartografiya, boshqaruv, navigatsiya (GPS), pochta xizmati, tez yordam va favqulodda vaziyatlar xizmatlarida oson qo'llanilishi kerak. Odatda, uzun, talaffuzi qiyin, bir-biriga juda o'xshash nomlar amalda muammo tug'diradi.

### **4. Talaffuz va idrokda aniqlik mezonlari.**

Joy nomi eshitishda, talaffuzda va yozishda turlicha talqinga olib kelmasligi lozim. Bir-biriga yaqin talaffuz qilinadigan nomlar chalkashlik keltirib chiqarishi mumkin.

### **5. Iste'molda barqarorlik mezonlari.**

Joy nomi xalq orasida, ommaviy iste'molda qanchalik mustahkam o'rnatilgan ham hisobga olinishi kerak. Chunki asrlar davomida qo'llanib kelingan nomlarni sababsiz o'zgartirish toponimik an'anaga zarar keltiradi.

### **6. Xalqaro iste'molda moslik (transliteratsiya) mezonlari.**

Agar joy nomi xalqaro kontekstlarda (xarita, turizm, logistika) ham qo'llanilishi ehtimoli bo'lsa, uning transliteratsiyasi murakkab bo'lmasligi kerak.

O'zbek tilidagi barcha toponimlar kabi Farg'ona viloyati toponimlari ham ana shu talab va mezonlar asosida yaratilgan. Masalan, **Qahat** — Bag'dod tumanidagi qishloq nomi. Geografik joy nomiga asos bo'lgan **qahat** so'zi "ocharchilik", "hosilsizlik", "yutqazish" kabi ma'nolarni anglatadi. Bu yerda **qahat** so'zi urug' nomi, ya'ni etnonim sifatida qo'llangan. Qishloq hududida qahat urug'i vakillari yashaganligi sababli ham shunday nom olgan. Demak, etnooykonim "qahat urug'i vakillari yashaydigan joy" ma'nosidadir [4; 137-b.].

Tuzilishiga ko'ra sodda hisoblangan ushbu oykonim hududning etnik tarkibini e'tiborga olish asosida yuzaga kelgan. Toponimlarning har biri yuqorida keltirilgan talab va mezonlar asosida yaratilishidan tashqari o'z motiviga, ya'ni nomlanish asosiga ega. Ma'lumki, toponimlar, asosan, nominatsiya, ya'ni nom berish funksiyasi bilan farqlanadi. Har bir toponim muayyan obyektga tegishli bo'lib, uning boshqalardan farqlanishini ta'minlaydi. Toponim geografik obyektning aniq belgilaydi, obyekt haqidagi fikrni aniq va qisqa ifodalaydi. Toponimlar leksik birlik sifatida geografik obyektlarni nomlashda muhim ahamiyatga ega. Toponimlarning nominatsion xususiyatlari ularning asosiy funksiyasini tashkil etadi hamda tilshunoslik va geografiya fanlari uchun muhim tadqiqot obyekti hisoblanadi.

Toponimlarning nominatsion xususiyatlari sifatida quyidagi belgilarni ko'rsatish mumkin:

1. Geografik obyektning belgilash — denotativlik. Toponimning eng asosiy vazifasi muayyan geografik obyektning nomlash va uni boshqa obyektlardan ajratib ko'rsatishdan iborat. Bunda nominatsiya "obyekt → nom" munosabati asosida yuzaga keladi. Masalan, \*Farg'ona\* toponimi muayyan tarixiy-geografik hududni, \*Sirdaryo\* gidronimi esa aniq daryo nomini bildiradi. Xuddi shuningdek, \*Shohimardonsoy\* so'zi oddiy leksik birlik emas, balki ma'lum bir suv obyektining nomi sifatida ishlaydi. Demak, toponim voqelikdagi joy, hudud, daryo, tog', qishloq yoki shaharni bevosita identifikatsiya qiluvchi nominativ birlik hisoblanadi.

2. O'ziga xoslik — unikallik. Toponimlar odatda muayyan obyektga xos bo'lgan nom sifatida shakllanadi. Har bir joy nomi o'z referentiga ega bo'lib, u shu obyektning boshqalardan farqlashga xizmat qiladi. Masalan, \*Qo'qon\* deyilganda Farg'ona vodiysidagi tarixiy shahar, \*Rishton\* deyilganda esa kulolchilik an'analari bilan mashhur bo'lgan muayyan shahar nazarda tutiladi. \*Shohimardonsoy\* nomi ham faqat belgilangan gidronimga taalluqli bo'lib, uning tarkibidagi "soy" komponenti obyektning suv havzasi bilan bog'liqligini bildiradi. Ba'zan bir xil yoki o'xshash nomlar turli hududlarda uchrashi mumkin, biroq ular ma'muriy-hududiy kontekst, geografik joylashuv va qo'shimcha aniqlovchilar orqali farqlanadi. Masalan, \*Yangiqo'rg'on\*, \*Oqqo'rg'on\*, \*Qiziltepa\* kabi nomlar turli hududlarda uchrashi mumkin, ammo har biri o'z joylashuv nuqtasi bilan alohida toponimik birlik sifatida namoyon bo'ladi.

3. Barqarorlik. Toponimlar uzoq tarixiy davr davomida saqlanib qolish xususiyatiga ega. Ular xalq xotirasi, tarixiy jarayonlar va madaniy meros bilan chambarchas bog'liq bo'lgani uchun ko'pincha asrlar davomida o'z shaklini yoki asosiy ma'nosini saqlab keladi. Masalan, X asrda yaratilgan "Hudud ul-olam" asarida \*Farg'ona\*, \*O'sh\*, \*Hujand\*, \*Xorazm\* va \*Rishton\* kabi toponimlarning hozirgi shakliga yaqin ko'rinishda uchrashi ularning tarixiy barqarorligini ko'rsatadi. Bunday nomlar faqat geografik belgi emas, balki tarixiy xotira va madaniy davomiylikni ifodalovchi lisoniy birliklardir. Shu jihatdan, toponimlarning barqarorligi xalqning hududiy o'zligini, tarixiy yashash makonini va madaniy merosini saqlashga xizmat qiladi.

4. Aniqlik va funktsionallik. Toponimlar geografik obyektning aniq, qisqa va qulay tarzda belgilab beradi. Ular xaritalarda, tarixiy manbalarda, ilmiy adabiyotlarda, rasmiy hujjatlarda va kundalik nutqda muhim kommunikativ vazifani bajaradi. Masalan, \*Toshkent\*, \*Samarqand\*, \*Buxoro\*, \*Andijon\*,

\*Namangan\* kabi toponimlar birgina soʻz orqali katta tarixiy, geografik va maʼmuriy hudud haqida axborot beradi. Xuddi shuningdek, \*Qoradaryo\*, \*Oqdaryo\*, \*Zarafshon\*, \*Chirchiq\* kabi gidronimlar suv obyektlarini aniq ajratishga xizmat qiladi. Toponimlarning funktsionalligi shundaki, ular nafaqat joyni nomlaydi, balki yoʻnalish koʻrsatish, hududni belgilash, maʼmuriy boshqaruv, tarixiy maʼlumot berish va madaniy xotirani saqlash vazifalarini ham bajaradi.

Shunday qilib, toponimlarning nominatsion xususiyatlari ularning denotativlik, unikalik, barqarorlik va funktsionallik belgilarida namoyon boʻladi. Har bir toponim maʼlum bir geografik obyektning nomlash bilan birga, xalqning tarixiy xotirasi, madaniy dunyoqarashi, tabiiy muhitga munosabati va hududiy tafakkurini ham aks ettiradi. Shu sababli toponimlar tilshunoslikda faqat nomlar tizimi sifatida emas, balki tarix, geografiya, madaniyat va xalq tafakkurini oʻzida mujassam etgan muhim lisoniy birliklar sifatida oʻrganiladi.

**Muhokama.** Toponimlarning nominatsion xususiyatlari ularni geografik identifikatsiya vositasi sifatida ajratib turadi. Har bir toponim muayyan geografik obyektning nomlash, uni boshqa obyektlardan farqlash va ijtimoiy kommunikatsiyada aniq belgilash vazifasini bajaradi. Shu jihatdan toponimlar oddiy nom emas, balki hudud, tarix, madaniyat va xalq tafakkurini oʻzida jamlagan muhim lisoniy birliklardir. Aytish mumkinki, nomlash jarayoni inson tafakkuri, til va madaniyatning oʻzaro uygʻunligi asosida shakllanadigan muhim kognitiv va ijtimoiy hodisadir. Inson atrof-muhitni idrok etar ekan, undagi obyektlarni oʻz tajribasi, ehtiyoji, tarixiy xotirasi va madaniy qarashlari asosida nomlaydi. Masalan, *Qoradaryo*, *Oqdaryo*, *Qiziltepa*, *Yangiqoʻrgʻon*, *Toshloq* kabi toponimlar obyektning tabiiy belgisi, rangi, shakli, joylashuvi yoki tarixiy vazifasi bilan bogʻliq holda yuzaga kelgan. Bu esa toponimlarda nominatsiya jarayoni bevosita real voqelik va inson tafakkuri bilan aloqador ekanini koʻrsatadi.

Ayniqsa, toponimlar muayyan hududning tarixi, etnik tarkibi, madaniy qadriyatlarini va xalq dunyoqarashini oʻzida mujassam etadi. Masalan, *Fargʻona*, *Samarqand*, *Buxoro*, *Xorazm*, *Qoʻqon*, *Rishton* kabi nomlar faqat geografik obyektning bildirmaydi, balki oʻzida katta tarixiy-madaniy xotirani ham saqlaydi. Ular orqali xalqning qadimiy yashash hududi, siyosiy-madaniy taraqqiyoti, hunarmandchilik anʼanalari va tarixiy tajribasi haqida tasavvur hosil qilish mumkin. Shu sababli toponimlar milliy xotirani saqlovchi va avloddan-avlodga yetkazuvchi lisoniy vosita sifatida ham muhim ahamiyatga ega.

Joy nomlarini yaratish va qoʻllashda motivlanganlik, tarixiy-etnik muvofiqlik, funktsional qulaylik hamda til meʼyorlariga moslik kabi mezonlarga amal qilish muhimdir. Motivlangan toponim obyektning muayyan belgisi, tabiiy xususiyati yoki tarixiy asosini ifodalaydi. Masalan, *Toshkent* nomida shahar nomining tarixiy-semantik asosi, *Zarafshon* gidronimida esa suv obyektining qadimiy madaniy talqini aks etadi. Aksincha, motivatsiyasi noaniq yoki sunʼiy yaratilgan nomlar xalq xotirasiga tez singib ketmasligi mumkin. Toponimlarning nominatsion xususiyatlari ularning barqaror, aniq va oʻziga xos leksik birlik sifatida jamiyat hayotida muhim oʻrin tutishini koʻrsatadi. Barqarorlik ularning tarixiy davomiyligini taʼminlasa, aniqlik geografik obyektning xatosiz belgilashga xizmat qiladi. Oʻziga xoslik esa har bir toponimning alohida obyekt bilan bogʻlanishini taʼminlaydi. Shu bois toponimlar nafaqat xarita, rasmiy hujjat yoki geografik tasvirlarda, balki badiiy adabiyot, tarixiy manbalar va kundalik nutqda ham faol qoʻllanadi. Umuman olganda, toponimlarning nominatsion xususiyatlarini oʻrganish tilshunoslik, tarix, geografiya, etnografiya va madaniyatshunoslik uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Chunki har bir joy nomi muayyan hudud haqidagi axborotni ixcham shaklda ifodalaydi, xalqning tarixiy xotirasi va madaniy tafakkurini saqlaydi hamda milliy tilning nominativ imkoniyatlarini namoyon etadi.

Xulosa qilib aytganda, tarixiy toponimlar muhim nominatsion birlik sifatida geografik obyektlarni identifikatsiya qilish bilan birga, xalqning tarixiy-madaniy merosini ham aks ettiradi. Ularning shakllanishida motivlanganlik, tarixiy-etnik muvofiqlik, funktsional qulaylik va til meʼyorlariga moslik muhim oʻrin tutadi. Toponimlarning nominatsion xususiyatlarini tadqiq etish kelajakda oʻzbek toponimikasini ilmiy asosda rivojlantirish, tarixiy joy nomlarini saqlash va ularni toʻgʻri tartibga solishda muhim nazariy asos boʻlib xizmat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI**

1. Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. – М.: Наука, 1973.
2. Begmatov E. Hozirgi oʻzbek adabiy tilining leksik qatlamlari. – Toshkent: Fan, 1985.
3. Begmatov E. Istiqloq davri toponimik siyosatining ilmiy prinsiplari // Filologiya masalalari. – 2004. – № 4.
4. Bozorov X.X., Shermuhammadov B.Sh., Ahmadaliyev Yu.I. Fargʻona viloyati joy nomlari izohli lugʻati. – Fargʻona: Navroʻz, 2024.